

XX ASR BOSHLARIDA FAYZULLA XO'JAYEVNING IJTIMOIIY-SIYOSIY FAOLIYATI TARIXIDAN

Xafizova Vazira Usmonovna

Buxoro davlat muzey-qo'riqxonasi Fayzulla Xo'jayev uy-muzeyi mudiri.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19135686>

Annotatsiya. Mazkur maqolada XX asr boshlarida Rossiya imperiyasida yuz bergan inqilobiy jarayonlarning Buxoro amirligiga ta'siri, ayniqsa 1917–1918-yillarda yosh buxoroliklar, bolsheviklar va amirlik o'rtasidagi siyosiy munosabatlar tahlil qilinadi.

Tadqiqotda Buxoro amirligini ag'darish rejalari, Turkiston ASSR va RSFSRning aralashuvi, Kolesov yurishi, Qiziltepa shartnomasi hamda ushbu voqealarning Fayzulla Xo'jayev faoliyatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, yosh buxoroliklarning bolsheviklar bilan hamkorlikka o'tishi, amir Olimxonning qarshilik siyosati, jadidlarga qarshi qatag'onlar va Xo'jayevning muhojirlik davridagi faoliyati manbalar asosida ochib berilgan. Muallif xulosasiga ko'ra, 1918-yil Fayzulla Xo'jayev qarashlarida keskin burilish yuz berib, konstitutsiyaviy monarxiya g'oyasidan respublika tuzumiga o'tish bosqichi boshlangan.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Fayzulla Xo'jayev, Yosh buxoroliklar, bolsheviklar, Kolesov voqeasi, Qiziltepa shartnomasi, amir Olimxon, jadidlar, Turkiston ASSR, RSFSR.

ИЗ ИСТОРИИ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ФАЙЗУЛЛЫ ХОДЖАЕВА В НАЧАЛЕ XX ВЕКА.

Аннотация. В данной статье анализируется влияние революционных процессов, произошедших в Российской империи в начале XX века, на Бухарский эмират, особенно политические отношения между младобухарцами, большевиками и эмиратом в 1917–1918 годах. В исследовании освещаются планы свержения Бухарского эмирата, вмешательство Туркестанской АССР и РСФСР, поход Колесова, Кызылтепинский договор, а также влияние этих событий на деятельность Файзуллы Ходжаева. Также на основе источников раскрываются переход части младобухарцев к сотрудничеству с большевиками, политика сопротивления эмира Алимхана, репрессии против джадидов и деятельность Ходжаева в период эмиграции. По выводу автора, в 1918 году во взглядах Файзуллы Ходжаева произошёл резкий перелом: от идеи конституционной монархии он перешёл к поддержке республиканского строя.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Файзулла Ходжаев, младобухарцы, большевики, поход Колесова, Кызылтепинский договор, эмир Алимхан, джадиды, Туркестанская АССР, РСФСР.

FROM THE HISTORY OF THE SOCIO-POLITICAL ACTIVITY OF FAIZULLA KHO'JAYEV AT THE BEGINNING OF THE 20TH CENTURY

Abstract. This article analyzes the impact of the revolutionary processes that took place in the Russian Empire at the beginning of the twentieth century on the Bukhara Emirate, especially the political relations among the Young Bukharans, the Bolsheviks, and the Emirate in 1917–1918. The study highlights the plans to overthrow the Bukhara Emirate, the intervention of the Turkestan ASSR and the RSFSR, Kolesov's campaign, the Kiziltepa Treaty, and the influence of these events on the activities of Fayzulla Khojayevev. It also examines, on the basis of sources, the shift of some Young Bukharans toward cooperation with the Bolsheviks, Emir Alim Khan's policy of resistance, repressions against the Jadids, and Khojayevev's activities during emigration. The author concludes that in 1918 Fayzulla Khojayevev's views underwent a sharp transformation, moving from the idea of a constitutional monarchy to support for a republican system.

Key words: Bukhara Emirate, Fayzulla Khojaye, Young Bukharans, Bolsheviks, Kolesov campaign, Kiziltepa Treaty, Emir Alim Khan, Jadids, Turkestan ASSR, RSFSR.

Kirish. O'zbekistonning suveren davlat deb e'lon qilinishi jonajon o'lka ozodligi va mustaqilligi uchun o'zbek xalqining necha-necha avlodi uzoq muddat olib borgan kurashi yakuni bo'ldi. O'zbek xalqining shavkatli o'g'loni, O'zbekiston va butun Markaziy Osiyoning yirik davlat va jamoat arbobi, yurtimiz ravnaqi yo'lida xizmat qilgan siymolardan biri Fayzulla Xo'jayev haq ish uchun kurash olib borgan ajoyib namoyondalar safidan munosib o'rin olgan.

Fayzulla Xo'jayev nisbatan qisqa umr kechirdi, ya'ni u 40 yildan ko'proq yashadi, biroq o'zbek xalqi, balki Markaziy Osiyoning boshqa xalqlari tarixida ham chuqur iz qoldirdi. Uning hayot yo'li murakkab, ba'zan ziddiyatli kechdi. Buxoro amirligining eng badavlat kishilaridan birining o'g'li bo'lgan Fayzulla Xo'jayev Buxoro Respublikasi hukumatini tugatilgunga qadar boshqardi, so'ngra 12 yildan ko'proq O'zbekiston hukumatiga rahbarlik qildi. Uning yorqin hayoti 1938-yili fojiali barham topdi.

Fayzulla Xo'jayev 1896-yil 1-iyun Buxoroda savdogar Ubaydulla Xo'ja o'g'li oilasida dunyoga keldi. Bu chaqaloq keyinchalik Buxoroda demokratik davlat qurishga uringan, O'zbekistonning rivoji uchun borini bergan kishi bo'ldi. Fayzullaning otasi XIX asrda qorako'lchilik bo'yicha ko'plab yurtlarda nom chiqargan savdogarlardan bo'lgan. U Fayzullani o'z merosxo'ri sifatida tanlab, 12 yoshida Moskvaga olib boradi. Fayzulla Xo'jayev Moskvada 1907–1912 yillarda xususiy o'qituvchilar qo'lida ta'lim oladi. Va shu yerda savdo va zamonaviy ilmlarni o'rganib, Buxoroga qaytib keladi.

Mamlakatda ijtimoiy– siyosiy va sotsial– iqtisodiy sharoitni e'tiborga olib, Buxoro jadidlari dastlabki paytlarda monarxiya tuzumini yo'qotish vazifasini oldinga surmadilar, yuqoridan islohot orqali amirlikni kapitalistik yo'lga yo'naltirishga intildilar. Jadidlar farzandlarimizni o'qitib, ma'rifatga erishamiz va ma'rifat bilan jamiyatni o'zgartiramiz degan g'oya bilan “Yosh buxoroliklar” partiyasini ochib, Buxoro amiriga qarshi kurash boshlagan edilar. Buxoro jadidlarining 1917-yilgacha bo'lgan amaliy faoliyati, keyinchalik Fayzulla Xo'jayev ta'kidlaganidek, asosan, ma'rifatparvarlik– yangi usuldagi maktablar va hokazolarni tashkil etishga qaratilgan edi [1, 93-101]. Jadidchilik harakati amirlikdagi xalqlar manfaatlarini ifodalardi, u usha davrda hukmron tuzumga nisbatan yagona qarama-qarshi siyosiy kuch bo'lib, Buxoro jamiyati istiqboli yo'lini izladi va shu bois uning demokratik, taraqqiyparvar kayfiyatdagi barcha qatlamlarini birlashtirdi va jipslashtirdi.

Adabiyotlar va Ilmiy usullar tahlili. Mazkur mavzuni yoritishda foydalanilgan adabiyotlar mazmuni va xarakteriga ko'ra bir necha guruhga ajraladi. Birinchi guruhga Fayzulla Xo'jayevning asarlari va unga oid materiallar kiradi. Xususan, Tanlangan asarlar hamda Buxoro inqilobining tarixiga materiallar kabi manbalar Yosh buxoroliklar harakati, Kolesov voqeasi, bolsheviklar bilan aloqalar va Buxoro amirligini ag'darishga doir ichki siyosiy jarayonlarni bevosita ishtirokchi nigohi bilan yoritadi. Bu manbalarning ustun tomoni voqealarning ichki mexanizmlarini ochib berishida bo'lsa, cheklangan jihati muallifning siyosiy pozitsiyasi va keyingi davr mafkurasi ta'sirida ayrim hodisalarga biryoqlama baho berilgan bo'lishi mumkinligidadir.

Ikkinchi guruhga Sadridin Ayniy asarlari kiradi. Ayniy Buxoro inqilobi arafasidagi vaziyat, amirlik tuzumining repressiv siyosati, jadidlarning ta'qib qilinishi va Kolesov voqesidan keyingi qatag'onlarni batafsil tasvirlaydi. Ushbu asarlar davr ruhi, ijtimoiy muhit va siyosiy keskinlikni yoritishda juda muhimdir.

Shu bilan birga, ular ham muallifning jadidchilik va inqilobiy harakatga moyil qarashlari asosida yozilganligi sababli tanqidiy yondashuvni talab etadi.

Uchinchi guruh - umumlashtiruvchi tarixiy tadqiqotlar. Jumladan, O'zbekiston tarixi, Rajabov va Inoyatovning Buxoro tarixi, Turkestan v nachale XX veka, Rashidovlar tadqiqoti hamda Rajabovning Qizil Armiya bosqiniga bag'ishlangan asari voqealarning umumiy tarixiy manzarasini tiklash, sana, siyosiy qarorlar va kuchlar nisbatini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tadqiqotlar birlamchi manbalarni sharhlash va tizimlashtirishga yordam beradi.

To'rtinchi guruhga esa davriy matbuot materiali — Novyy Turkestan gazetasi kiradi. U voqealarning davriy aks-sadosi va rasmiy siyosiy pozitsiyalarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi.

Tadqiqotda bir necha usullardan foydalanilgan. Avvalo, tarixiy-qiyosiy usul orqali Fayzulla Xo'jayev, Sadridin Ayniy va zamonaviy tarixchilarning qarashlari o'zaro solishtirildi.

Tarixiy-tizimli usul voqealarni sabab-oqibat zanjirida tahlil qilish, ya'ni Fevral va Oktyabr voqealarining Buxorodagi siyosiy jarayonlarga ta'sirini ochib berishda qo'l keladi.

Manbashunoslik tahlili usuli har bir manbaning kelib chiqishi, muallif pozitsiyasi, yozilgan davri va ishonchlilik darajasini aniqlash imkonini beradi. Biografik usul esa Fayzulla Xo'jayev faoliyatidagi 1917–1918-yillardagi keskin g'oyaviy burilishni tushuntirishda muhimdir. Shuningdek, muammoviy-xronologik yondashuv orqali voqealar ketma-ketligi izchil yoritilib, bolsheviklar, Yosh buxoroliklar va amirlik o'rtasidagi murakkab siyosiy munosabatlar ilmiy asosda tahlil qilinadi. Natijada mavzu ko'p manbali va tanqidiy yondashuv asosida yoritilishi ta'minlanadi.

Natija va Tahlil. XX asr boshlarida jahonda turli siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlar yuz bera boshlagani holda mazkur jarayonlar Rossiya imperiyasiga ham ta'sir qildi.

Xususan, 1917-yilning fevral oyida Rossiya imperiyasida "Fevral inqilobi" natijasida podsho hokimiyati ag'darilib, mamlakatda turli inqilobiy vaziyatlar yuz bera boshladi.

Shuningdek, Petrogradda yuz bergan "Oktyabr davlat to'ntarishi" natijasida dastlab Rossiyaning markaziy hududlarida va keyinchalik Turkiston mintaqasida hokimiyat tepasiga bolsheviklarning kelishi Buxoro amirligidagi voqealar rivojiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi.

Bolsheviklar sobiq Rossiya imperiyasi tomonidan egallangan hududlarda o'z hukmronliklarini o'rnatib, yirik xomashyo bazalari, yer osti va yer usti boyliklari, shuningdek, iqtisodiy imkoniyatlarga ega bo'lishga intildilar.

1917-yil 2-dekabrda bo'lib o'tgan Buxoro amirligidagi rus manzilgozlari vakillarining Ikkinchi viloyat syezdida Rossiya va Turkiston hukumatining Buxoro ishlari bo'yicha hay'ati saylandi [2, 100]. Mazkur kengashda Buxoro amirligini ag'darib tashlash to'g'risidagi qaror qabul qilindi [3, 135]. Ayni paytda Buxoro amirligini ag'darib, sovet tuzumini o'rnatish uchun jiddiy rejali harakat boshladilar. RSFSR va Turkiston ASSR hukumatlari amirlikni tugatishda amirlikka muxolifat bo'lgan Yosh buxoroliklar partiyasidan foydalanib o'z maqsadlariga erishmoqchi bo'ldilar. Bolsheviklar har bir vaziyatdan foydalanib, Buxoro amirligi ichki ishlariga aralashib, amirlik tuzumiga muxolifatda bo'lgan kuchlarni qo'llab-quvvatlab, amirlikni tugatishga urindilar. O'z navbatida, Yosh buxoroliklarning bir qismi Buxoro amirligini ag'darishda bolsheviklar bilan hamkorlik yo'liga o'tdi. Buxoro amirligidagi 1917-yilgi aprel namoyishidan so'ng ko'pgina Yosh buxoroliklar Yangi Buxoroga ketishga majbur bo'ldi. Yangi Buxoro Sovetining raisi bolshevik P.G.Poltoraskiy va boshqa bolsheviklar Yosh buxoroliklarni amirlikni ag'darishga da'vat qila boshladi.

Bu to'g'risida Fayzulla Xo'jayevning quyidagi fikrlari asos bo'la oladi: "yosh buxoroliklar tashkilotining bolsheviklar tomoniga burilishiga rus inqilobchilaridan, ya'ni Yangi Buxoroda birdan-bir ishchi kommunistlardan bo'lgan Preobrajenskiy, Utkin, Poltoraskiy ko'p yordam qildilar" [4, 116]. RSFSR Xalq Komissarlar Sovetining O'rta Osiyo bo'yicha favqulodda Komissari P.A.Kobozev ham Yosh buxoroliklarga amaliy yordam berishga rozilik bildirdi. Yosh buxoroliklar partiyasi vakillari Turkiston ASSRdan yordam olishga harakat qildilar. Bu to'g'risida Fayzulla Xo'jayev o'z asarida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Preobrajenskiy maslahati bilan Markaziy Qo'mita Turkiston sho'rolar hukumati bilan muzokara boshlash uchun o'zidan vakillar yuborishga qaror berdi. Markaziy Qo'mita menga va o'rtoq Preobrajenskiyga Toshkentga borishni taklif qildi. Menga, bizning tashkilotimiz uchun ahamiyatlik bo'lgan hamma masalalar haqida, hatto bizning uchun eng muhim masala, ya'ni amirga qarshi birlashib qurol kuchi bilan bosh ko'tarish masalasi haqida xam Turkiston xalq komissarlari sho'rosining raisi o'rtoq Kolesov bilan so'zlashib bir fikrga kelish vazifasi topshirildi" [5, 133].

1917-yil 6-dekabrda Yosh buxoroliklar tarkibida Fayzulla Xo'jayev va Mirza Muhiddin Mansurov bo'lgan delegatsiyasi Toshkentga keldi [6, 292]. Muzokaralar natijasida Turkiston ASSR XKS raisi F.Kolesov yosh buxoroliklarga amaliy yordam berishga va'da berdi.

Buxoro amirligining moliyaviy jihatdan Turkiston ASSRga nisbatan ustunligi hamda bolsheviklarning hujum xavfini sezib amirlik qo'shinini qayta qurollantirishi Kolesovning Buxoro amirligiga tajovuzini tezlashtirdi. Sadridin Ayniyning bu to'g'risida aytgan quyidagi fikrlari o'rinlidir: "Buxoro xukumatining ozgina dushmanligi ko'pgina voqealarga sabab bo'lishi ehtimoli edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Kolesov Qo'qon voqeasining orqasidan Buxoro masalasini ham hal qilmoqchi bo'ldi" [7, 237]. Bu yurush avvaldan rejalashtirilgan bo'lib, yosh buxoroliklarga yordam berish niqobi ostida amalga oshirilishi lozim edi. Kolesovning asosiy maqsadi Buxoro amirligini davlat sifatida tugatish edi.

Fayzulla Xo'jayevning yozishicha, Kolesov Buxoro amirligiga qarshi yurishdan besh kun oldin Ashxoboddan Toshkentga qaytish vaqtida yosh buxoroliklar bilan uchrashadi. Bu uchrashuvda Fayzulla Xo'jayev ham qatnashadi. Yosh buxoroliklar partiyasi Markaziy Qo'mitasi tomonidan qurolli qo'zg'olonga rahbarlik qilish uchun yetti nafar a'zodan iborat inqilobiy qo'mita tuzildi. Qo'mita tarkibiga Fitrat, Otaulla Xo'jayev, Fazliddin Maxsum Fayzulla Xo'jayev, Abdulvoxid Burxonov, Ishoq Ag'darov va Qori Yo'ldosh Po'latovlar kiritildi.

1918 yil 1 martda Yangi Buxoro (Kogon)ga qurolli eshelon bilan yetib kelgan Kolesov amirlikka qarshi harbiy harakatlar rejasini ishlab chiqdi [6, 293]. Bolsheviklar dastlab amir Olimxonga talabnoma yubordilar. Talabnomada quyidagi keskin shartlar talab qilingan edi:

- so'z, matbuot va boshqa demokratik erkinliklar beriladi;
- amir huzurida Yosh buxoroliklardan iborat maxsus Kengash bo'lishi kerak, amirning maslahatchilari o'z lavozimlaridan bo'shatiladi;
- Buxoro hukumatining barcha a'zolari Yosh buxoroliklar partiyasi tomonidan tavsiya etilgan yangi a'zolar bilan almashtirilishi lozim;
- o'lim jazosi va tan jazosi berish bekor qilinishi darkor;
- bir qator soliqlar bekor qilinishi zarur [8, 100].

Buxoro amiri bolsheviklar tomonidan qo'yilgan talablarga qarshi emasligini va ayni paytda yuqoridagi talablarni bosqichma-bosqich yuzaga chiqarishga va'da beradi. 1918 yil 1 martda amirning javobidan qoniqmagan Kolesov harbiy harakatlarni boshlashga buyruq beradi va harbiy harakatlar boshlandi [9].

Fayzulla Xo‘jayevning ta’kidlashicha, harbiy harakatlar boshlanishi oldidan Buxoro amiridan vakillar kelib, amirning talabnoma shartlariga ko‘nganligini va unga qo‘shimcha ravishda shartlar qo‘yganligini bayon qildilar. Bunga ko‘ra ular Buxoro amiri talabnomaning shartlariga rozi ekanligini, lekin shaharga askar kirmasligini, shaharda yosh buxoroliklar namoyish o‘tkazmasligi va talabnoma shartlarini mumkin qadar keyinroq amalga oshirish kerakligini uqtirib o‘tdilar [5, 142]. Lekin bu javob xati amir tomonidan imzolanmagan edi. Shu sababli Kolesov hujumga o‘tish to‘g‘risida buyruq berdi. Dastlabki harbiy harakatlarda amir mag‘lubiyatga uchradi va bolsheviklarning talablariga rozi bo‘lib, Buxoro shahriga hujumni to‘xtatishni so‘radi. Kolesov harbiy harakatlarni to‘xtatish va mudofaaga o‘tish to‘g‘risida ko‘rsatma berdi [9]. Shundan so‘ng bir tomondan bolsheviklar va yosh buxoroliklar, ikkinchi tomondan amirlik vakillari o‘rtasida muzokaralar boshlandi. Amir Olimxon bu xunrezgilikni va oldini olish maqsadida Usmonbek qushbegi, Xo‘ja Zakriyo va Azimovlardan iborat vakillarini Kolesovning huzuriga yubordi [10, 60]. Muzokaralarda Fayzulla Xo‘jayev, Fitrat, Fazliddin Maxsum va Abdulvoxid Burxonovlar qatnashdi. Amir Olimxon bir tomondan muzokaralar olib borsa, ikkinchi tomondan vaqtdan unumli foydalanish maqsadida Buxoro shahri atrofiga askariy qismlarni to‘play boshladi. Tez orada 35 ming kishilik qo‘shin to‘pladi. Keyin jang harakatlari qaytadan boshlandi. Amirlik sarbozlari Kolesovning tor-mor keltirish va unga keladigan yordamni to‘xtatish maqsadida Karmanadan Qorako‘lga qadar cho‘zilgan 100 chaqirimdan ortiq temir yo‘lni buzib, butun telegraf aloqasini uzib tashladilar. Harbiy harakatlar natijasida Kolesov mag‘lubiyatga uchradi. Kolesov yengilganini tan olib, amir bilan muzokaralarni yangidan boshladi. Muzokaralar davomida amir xukumati Kolesov bilan chekinayotgan yosh buxoroliklarni yoki hech bo‘lmasa ularning ichidan Fayzulla Xo‘jayev, Fitrat va Burhonovni amir qo‘liga topshirsa, amirning ta‘qib qilishlarini to‘xtatishga va butun yerdagi “ur-yiqitlar”ni to‘xtatish uchun tadbirlar qilishga rozi bo‘lganini bildirdi [11, 136]. 1918 yil 25 martda Qiziltepada Turkiston XKS bilan Buxoro amirligi o‘rtasida bitim tuzildi [9]. Bu tarixga “Qiziltepa shartnomasi” nomi bilan kirgan. To‘qqiz banddan iborat bitim matnidan shuni anglash qiyin emaski, Buxoro amirligi faqat jabr ko‘rgangina emas, aksincha, o‘z davlati hududidagi harbiy harakatlarda aybdor deb hisoblandi va tovon to‘lashga majbur qilindi [12, 10].

Fayzulla Xo‘jayevning yozishicha, o‘zining Qo‘qon g‘alabasi bilan mast bo‘lgan Kolesov Amir Buxorosini ham shunday yengillik bilangina tugatishni o‘yladi. Lekin haqiqat unga qarshi bo‘lib chiqdi [5, 139].

Kolesov voqeasidan so‘ng amir o‘z raqiblaridan ayovsiz o‘ch ola boshladi. Fayzulla Xo‘jayevning yozishicha, 1918 yil martdagi Kolesov voqealaridan so‘ng amirlikda 1500 kishi jadid sifatida qatl etilgan [5, 147].

Kolesov voqealaridan so‘ng Fayzulla Xo‘jayevning Buxoroda qolishi fojeali tus olishi mumkin edi. Fayzulla Xo‘jayevning uyi tintuv qilindi va xizmatkorlaridan besh kishi o‘ldirildi. Shu sababli u dastlab Samarqandga, undan so‘ng Toshkentga yo‘l oladi. Amir xukumati uni ta‘qib qilishdan to‘xtamadi. Sadridin Ayniyning yozishicha, amir odamlari Samarqandga kelib, Fayzulla Xo‘jayevni ta‘qib qila boshladilar. Fayzulla Xo‘jayev buni anglab, tezgina Toshkentga ko‘chdi. Jallodlar ham Toshkentga ko‘chdi. Jallodlar Toshkentga borgan bo‘lsalar ham unda ishlari baror olmadi va Toshkent xalqidan o‘zlariga yo‘ldosh topa olmadilar. Shuning uchun takror Samarqandga qaytib tuzoqlarini shu yerga qurdilar. Fayzulla Xo‘jayev va Mirza Abdulvohid ismlariga soxta telegraf yuborib bularni Samarqandga chaqirdilar.

Maqsadlari ularni Samarqandga keltirib vokzal bilan shahar orasida yoki qo'nadigan manzillarida qo'lga olmoq edi. Lekin Samarqandga telegraf berib, taftish qilganidan keyin mazkur telegraflarning soxtalıkları ma'lum bo'ldi [13, 243-244].

Fayzulla Xo'jayev ma'lum muddat Toshkent shaxrida yashirib yuradi. Turkiston milliy ozodlik harakatining namoyandasi Sadridin Sharifxo'jayevning nabirasi, O'zbekiston kinofabrikasining xodimi Asadulla Xo'jaxonovning o'g'li Jo'raxon Xo'jaxonovning aytishi va ko'rsatgan fotosuratiga ko'ra Fayzulla Xo'jayev dastlab ularning uyida bir necha oy yashirib yashagan. Mufti Sadridinxon Sharifxo'jayev Fayzulla Xo'jayev yashashi uchun barcha shart-sharoitni yaratib bergan ekan. Ammo oradan ma'lum vaqt o'tgach, Toshkent ma'rifatparvarlik va taraqqiyparvarlik harakatining namoyandalaridan biri, mashhur zavodchi boy Komilbek Norbekov Fayzulla Xo'jayevga dala hovlisidan boshpana beradi [14, 76].

Kolesov voqealaridan keyin ko'pgina yosh buxoroliklar partiyasi vakillari Samarqand va Toshkentdan panox topgan edi. Fayzulla Xo'jayev Toshkentda bo'lgan davrida Yosh buxoroliklarga moddiy yordam berish, ularga ish qidirish bilan shug'ullandi.

1918 yil yozida Fayzulla Xo'jayev Moskvaga yo'l oldi. Ammo Orenburgda ham amir odamlari tomonidan ta'qib qilindi. Bu to'g'risida Sadridin Ayniy o'z asarida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Yashirin jallodlarning vakillari Orenburgda ham turar va Toshkentdagi amir Konsuli Mirbobodan ta'limot olib ishlar edilar. Fayzulla Xo'jayev Orenburg orqali Moskvaga borayotganida jallodlar tomonidan ta'qib kilindi. Lekin jallodlar Fayzulla Xo'jayevni taniy olmay Fayzulla Xo'jayev gumon qilib uning amakivachchasini o'ldirdilar va Fayzulla Xo'jayevni o'ldirdik, deb amir Konsuli Mirbobodan mukofot oldilar" [13, 244].

Amirlik ta'qibidan qutilgan Fayzulla Xo'jayev ko'p o'tmay Orenburgni egallab olgan ataman A.I.Dutov zobitlari tomonidan shu shaxarda xibsga olindi va to'rt oy qamab qo'yildi. Uni bolsheviklar bilan aloqasi borligi sababli dala sudi tomonidan o'lim jazosiga xukm qilindi.

Ammo Ahmad Zaki Validiyning yordami bilan omon qoldi. Bu haqida Ahmad Zakai Validiy o'z xotiralarida quyidagi ma'lumotlarni keltirib o'tadi: "Iyulning oxirlarida bir voqea bo'ldi. Keyinroq, 1920 yildagi Buxoro inkilobidap so'ng u yerdagi inqilobiy hukumat Markaziy Sho'rosining bo'lg'usi raisi Usmonxo'ja bilan shu hukumatning markaziy qo'mitasiga bo'lg'usi rais Fayzulla Xo'ja Turkistondan Moskvaga borayotgaida Dutovning shaxsiy xavfsizligini ta'minlovchi zobitlar tarafidan qo'lga olinib, bolshevik agenti sifatida ayblanib, Orenburg kamoqxonasiga tashlanganlar. Ular Dutov hukumatiga: "Validov bizni yaxshi biladi", deb xabar kilishgan. Dutov hukumati bir oz vaqt o'tgach, bu axvolni menga bildirdi. Men ularni qamokdan chiqarib, karvonsaroyga joylashtirdim. Ilgaridan Moskvada savdo manzillarga ega bo'lgan bu ikki kishn boy savdogar va Buxoroning yangi rahnomalaridan edilar. Ulardan xam Buxorodagi ahvol haqida to'liq ma'lumot oldik. Ikkovlari Moskvaga yetib olish umidi bilan qizillardan qutqarilgan Qozonga bordilar" [15, 56]. Fayzulla Xo'jayev Samara va keyinchalik Qozon shaxarlarida Olim Churayev nomi bilan yashirib yuradi.

1918 yil oktyabrda Moskva shaxriga yetib keladi. RSFSR hukumati huzuridagi Turkiston ASSR muxtor vakilligi tomonidan 1918 yil 2 oktyabrda Fayzulla Xo'jayevning iltimosiga ko'ra Moskva hamda RSFSRning boshqa shaharlarida yashash va qurol ta'qib yurish xuquqini beruvchi guvoxnomalar va passport beriladi [16, 18]. Fayzulla Xo'jayev muxojirlikda Moskva shaxridagi Bolshaya Dmitrovka ko'chasi 9-uy 15-xonadonda yashaydi.

Fayzulla Xo'jayev Moskvada RSFSR hukumatidagi Turkiston ASSR muxtor vakilligi huzurida Yosh buxoroliklar qo'mitasini tashkil qildi.

Qo'mita tarkibida to'qqiz a'zo bo'lib, uning vazifasi Buxoro amirligida o'zbek va tojik tillarida varaqalar, xitobnomalar va chaqiriqlar nashr qilish va tarqatishdan iborat bo'lgan.

Mazkur ishlar uchun mablag'ni RSFSR hukumati ajratib turdi. Masalan 1918-yilning noyabr oyida varaqalar, xitobnomalar va chaqiriqlar uchun RSFSR tomonidan 155 ming so'm ajratildi [17, 15]. 1918-yil Moskva shaxrida Turkiston ASSR MIQ Muxtor vakolatxonasi bilan Yosh buxoroliklarning majlisi bo'lib o'tadi va unda Fayzulla Xo'jayev tomonidan ishlab chiqilgan "Instruksiyalar loyixasi" tasdiqlandi. Mazkur loyixada Buxoro amirligini ag'darib tashlash g'oyasi ilgari surilgan edi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak, 1918-yil Fayzulla Xo'jayev ijtimoiy-siyosiy faoliyatida keskin o'zgarishlar ro'y berdi. U 1917-yilda amirlik tuzumi saqlangan holda konstitutsiyaviy monarxiya tartiboti uchun kurashgan bo'lsa, 1918-yildan boshlab esa respublika tuzumini o'rnatish uchun harakat boshladi. Fayzulla Xo'jayevning ijtimoiy-siyosiy faoliyatidagi bu o'zgarish avvalo bolsheviklarning tashviqoti sababli sodir bo'ldi. Fayzulla Xo'jayevning bolsheviklar bilan o'rnatgan aloqasi uning g'oyalarini o'zgarishiga olib keldi. Fayzulla Xo'jayev bolsheviklarning balandparvoz g'oyalariga ishongan edi. O'z navbatida bolsheviklar Yosh buxoroliklardan o'z g'arazli maqsadlarida foydalandilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Fayzulla Xo'jayev. Tanlangan asarlar . 1-tom. Toshkent. 1976, 314-bet.
2. Ўзбекистон тарихи. I китоб. 1917-1939 йиллар. -Тошкент: O'zbekiston, 2019. -Б.100.
3. Ражабов Қ., Иноятлов С. Бухоро тарихи. -Тошкент: Tafakkur, 2016. -Б.135.
4. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар // Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақидаги янги мулоҳазалар.-Тошкент: Фан, 1997.-Б.116.
5. Файзулла Ходжаев. Избранные труды. Том 1.-Ташкент: Фан, 1970.- С. 133.
6. Туркестан в начале XX века: К истории истоков национальной независимости. Научный редактор Р.Я.Раджабова. -Ташкент: Шарк, 2000. -С.292.
7. Садриддин Айний. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: ЎзССР давлат бадиий адабиёт, 1963. -Б.327.
8. Ўзбекистон тарихи. Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар. -Тошкент: O'zbekiston, 2019. -Б.100.
9. Новый Туркестан. № 34 (51) 28 февраль (18 марта) 1918 г.
10. Рашидов У, Рашидов Ў. XX аср бошларида Бухоро амирлигидаги сиёсий-иқтисодий жараёнлар. -Бухоро: Бухоро, 2011. -Б.60.
11. Хўжаев Ф. Бухоро инқилобининг тарихига материаллар // Файзулла Хўжаев ҳаёти ва фаолияти ҳақидаги янги мулоҳазалар. -Тошкент: Фан, 1997. -Б.136.
12. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ва ҳақиқат (1920-1924 йиллар). -Тошкент: Маънавият, 2002. -Б.10.
13. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. -Москва. СССР халқлари Марказий нашриёти, 1926. -Б.243-244.
14. Сирожиддин Аҳмад. Файзулла Хўжаев Тошкентда // Тарихнинг номаълум саҳифалари. VII китоб. -Тошкент: Тошкент Ислом университети нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018. -Б.76.
15. Аҳмад Закий Валидий Тўғон. Бўлингани бўри ер. -Тошкент: Адолат, 1997. -Б.56.
16. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1-жилд. -Тошкент: Фан, 1976. -Б.18.
17. Эшонов О. Файзулла Хўжаев. -Тошкент: Ўзбекистон, 1973. -Б.15.